

QOBIL FARZAND KAMOLI – YURT JAMOLI



www.tongyulduzi.uz

2011-yil
25-may
N:21
(66822)

ISSN – 2010-6092

DIQQAT! «ONAJONIM TABIAT» INSHOLAR TANLOVI YAKUNLANDI!

Mana, ikki yildirki, yurtimiz tabiati, atrof-muhitini himoya qilish, ekologik holatni yaxshilash, atmosfera, yer va suv resurslarini chiqindilardan muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ibratli ishlarda o'quvchilar faolligini oshirish, ekologik ta'lim-tarbiyani maktab partasidanoq shakllantirish, yosh avlodning murg'ak qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish maqsadida o'tkazib kelinayotgan «Onajonim tabiat» insholar tanlovi yakunlandi.

Tanlovga kelgan ko'plab ijodiy ishlar saralanib, quyidagi o'quvchilar tanlov g'olibi deb topildilar:

1-o'rin – Sohibjon Xatamov, Farg'ona viloyati, Buvayda tumanidagi 36-umumta'lim maktabi o'quvchisi;

2-o'rin – Sevarabonu IBODULLAYEVA, Umida HAMDAMOVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabi o'quvchilari;

3-o'rin – Yolqin ESHQUVVATOV, Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, Qaysar qishlog'idagi 28-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

Rag'batlantiruvchi o'rin g'oliblari:

1-o'rin – Shahnoza SHAMSIDDINOVA, Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 1-maktabning 9-sinf o'quvchisi;

2-o'rin – Ramazon QO'RG'ONOV, Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 59-maktabning 6-sinf o'quvchisi;

3-o'rin – Risolatxon IBRAGIMOVA, Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 296-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi.

Insholar tanlovi g'oliblarini qutlaymiz!
G'oliblarni taqdirlash marosimi 3-iyun, soat 10⁰⁰ da O'zbekiston Ekologik Harakati binosida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Bunyodkor shoh ko'chasi, 1-«A» uy.
Murojaat uchun telefonlar: 245-46-72, 244-27-25.

USHBU SONDA:

ORZULAR
QO'NG'IROG'I

4-bet

5-bet

ZAFARJONGA
SHERIK
BO'LASIZMI?

6-bet



Bugun sening peshonangga kelajak nuri qo'ndi. Agar sen bu nurni yaxshilik zarralari bilan boyitsang, yo'ling oydin bo'lib, adashish so'g'moqlariga kirib kelmaysan. Yana senga qanday maslahatlar bermoq zarur? Albatta, bu o'rinda Hasrat Alisher Navoiy bobomizning o'g'illari muhim qo'llanma bo'lishi mumkin. Quyida buyuk shoirning tanbehlaridan iqtibos keltirishni lozim topdik.

YOLG'ONCHI

Yolg'onchi kishida lafz bo'lmaydi. U o'z so'zini bir-ikki bor o'tkazadi, keyin nima qiladi? Yolg'oni bilinib qolgandan so'ng unga rasvolik yetadi va xalq e'tiboridan qoladi.



Tarixdan ma'lumki, iqtidorli bolalar yoshlikdanoq o'zlarini namoyon eta bilganlar. Amir Temur to'qqiz yoshida, maktabda

tahsil olib yurgan paytlarida shahrisabzlik donishmandlar huzurida imtihondan o'tib, o'zining noyob qobiliyati, zukholigi bilan hammani hayratga solgan. Ulug'bek to'rt yoshida falakshunoslikka bo'lgan qiziqishini namoyon etib, Sohibqiron bobosini suyuntirgan. Alisher Navoiy o'n ikki yoshida shoir Lutfiyning nazariga tushgan.

Mustaqillik mamlakatimiz yoshlariga keng imkoniyatlar berdi va bu imkoniyatlardan o'rinni foydalangan o'smirlar ulug' ajdodlariga munosib ravishda har sohada yuksak natijalarni qo'lga kiritmoqdalar. Quyida ana shunday iqtidor egalari nomlarini takror eslatib o'tmoqchimiz:

BITIRUVCHI



DEHQON

«Dehqon agar to'g'rilik bilan don sochsa, haq biriga yetsa, yuz eshikni ochadi».

Bitiruvchi!

Sen, ehtimol, ertaga fermer bo'larsan. Keng dala, tuproq sendan mehr kutib turadi. Yerni yorish bilan rizq yo'lini ochuvchi, fozil inson bo'lishingni unutma.

MUSHUKNI SIYLASH

Yomonlarga marhamat va yaxshilik yaxshilarga zarar va alam keltiradi. Mushukni siylash kabutarlarga ofatdir.



OVQAT

Oz demoq hikmatga bois, oz yemoq sog'liqqa sabab. Og'ziga kelganini demoq nodonning ishi va oldiga kelganni yemoq hayvon ishi...

ILM

Ilm olib, unga amal qilmagan, shudgor qilib urug' ekmaganga o'xshaydi.



SO'ZAMOLLIK

... ko'p so'zlamok — maqbul emas, ko'p eshitmok — matlub va yaxshidir.

AQLLI KISHI

Aqli kishilar xatosidan ogohlanadi, to'g'ri yo'lga tushib oladi.

XULOSA:

Sen bitiruvchisan!

Bu kunga yetganingning o'zi katta saodat. Shu aziz yurtimizning komil farzandi bo'lib, bir kun «Men yaxshi insonman!» deya quvonishingni istab qolaman.

Senga oq yo'l tilab, qadrdoing «Tong yulduzi»!

SENGA SAVOL

Bir savdogar Mirzo Ulug'bekning oldiga kelib: «Shohim, men Jayhun daryosi bo'yida qimmatbaho la'limni yo'qotib qo'ydim, uni topishda menga himmat ko'rsating», deya iltimos qilibdi.

Mirzo Ulug'bek debdi:

— Bir yil sabr qil. Topsam, men ham xursand bo'laman. Topmasam, qiymatini mendan olasan.

Savdogar ta'zim qilib, chiqib ketibdi.

Mirzo Ulug'bek bir tadbir o'yladi va la'lni topdi.

Xo'sh, ulug' olim, saltanat sohibi la'lni qay yo'l bilan topdi?

O'quvchi!

Sen ham mushohada qil!
Topsang, xursandmiz. Topmasang,
gazetamizning 8-sahifasiga qara!



MEN YIGIRMA YOSHDAMAN

Arab tiliga ixtisoslashtirilgan 29-umumta'lim maktabida ta'lim-tarbiya olganman. Maktabdagi barcha tadbirlarda faol ishtirok etib, o'z mahoratimni oshirganman.

Ota kasbiga bo'lgan mehrim — matbaachilik sohasini kengroq o'rganish uchun Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining «Matbaa, to'qimachilik kimyosi texnologiyasi va aytomatlashtirish» fakultetiga o'qishga kirdim.

O'qish jarayonida ham turli tadbirlarda va tanlovlarda ishtirok etmoqdaman. Niyatim, kelgusida o'z mutaxassisligim bo'yicha ilmiy faoliyatimni olib borish.

Tengdoshlarimga va uka-singillarimga aytadigan so'zlarim: bo'sh kelmang, faqat olg'a!

Madina QAMBAROVA,
to'qimachilik va yengil sanoat institutining 1-bosqich talabasi

16 YOSHIDA OSIYO CHEMAIONI



Nima bo'yicha, deb so'raysizmi?! Shohmot bo'yicha. Darvoqe, bu yigitning nomini darhol topdingiz.

1994-yilda Qatar davlatining poytaxti Dohada bo'lib o'tgan Shohmot musobaqasida u barcha raqiblarini dog'da qoldirib, Osiyo chempioni degan yuksak nomga sazovor bo'lganida, atigi 16 yoshda edi. Bu siz bilgan Rustam Qosimjonov edi.

«ENG KICHIK QAHRAMON» SOVRINI

Sochi shahrida o'tkazilgan kinoanjumanda 8 yoshli o'zbek bolasi shunday katta sovrinni qo'lga kiritgan edi. Uni barchangiz yaxshi tanisiz. Bu o'sha siz sevgan mitti aktyor — Dilshodbek Kattabekov — «Kichkina tabib» edi.

Bo'sh kelma, Dilshod!



12 YOSHIDA YAPONLAR TILIGA TUSHGAN QIZ



Eslang, bu qizaloq kim edi? Tinchlik mavzuida yaratilgan «Mahallada to'y» asari uchun mo'jizalar mamlakati Yaponiyaning qadimiy Xirosima shahrida o'tkazilgan Xalqaro bolalar rasmlari ko'rik-tanlovida maxsus mukofot va Diplom bilan taqdirlangan qiz — Dilfuza Matboyeva edi.

Bugungi bitiruvchi!
Senga ham shu baxt, saodat nasib etsin!



QADRDON DARGOH.

Har gal maktablarda so'nggi qo'ng'iroq sadolari yangraganida, entikib ketamiz.

Yoshlik, bolalikning shirin damlari yodga tushadi. Qiziq bir holat. Maktab jajji o'g'il-qizlarni birinchi qo'ng'iroq sadosi ostida o'z bag'riga oladi.

Mustaqil hayotga ham qo'ng'iroq sadolari bilan kuzatib qo'yadi. Yillar o'tsa-da, uning o'xshashi yo'q jarangi quloqlarimiz ostidan ketmay, dillarga ajib his baxsh etadi.

Ana, so'nggi qo'ng'iroq chalingdi...

Uning ovozi nafaqat bitiruvchilarni, balki ularga farzandiday mehr qo'yan ustozlarining ham yuraklarini hayajonga soldi. Quvonch bilan hayajon uyg'unlashib ketadi, go'yo.

Bolalikning pokiza xayollariga,



Buyuk va muqaddas, mustaqil yurtida yashashning o'zi katta baxt. Mustaqillik yillarida qad rostlayotgan go'zal binolar ko'zni quvontiradi. Ana shu inshootlar safidagi 7800 dan ortiq ta'lim muassasalari orasida bizning ko'rkam, keng, yorug', shinam, zamonaviy anjomlar bilan jihozlangan maktabimiz ham borligidan faxrlanamiz.

Kimyo, fizika, informatika o'quv xonalari, trenajor xonasi, adabiyotlarga boy kutubxonalardan iborat ta'lim maskani bilimlarimizni yanada boyitishga xizmat qilmoqda. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan o'g'il-qizlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirish, kelajakda Yurtboshimiz ishonchini oqlash, Vatanning sodiq farzandi bo'lish maqsadida tinimsiz o'qib-izlanmoqdalar.

Fidoyi ustozlarimiz boshchiligidagi o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar, hayotda o'z bilim va salohiyatiga ishonib yashash ruhida tarbiyalash uchun esa bir

maktabning beg'ubor sho'xliklariga birgina kalom aytiladi: «Xayr, maktabim!»

Bugun poytaxtning Yunusobod tumanidagi 97-maktabda ham ana shunday unutilmas kun. Ilm dargohida ta'lim olayotgan har bir o'g'il-qiz bugun o'zgacha tuyg'u bilan maktabiga tashrif buyurdi. Bitiruvchimi yoki sinfdan-sinfga o'tayotgan o'quvchimi, barchasida o'ziga xos quvonch va hayajon.

– Ilm maskanimizda 2010-2011-o'quv yilida 1960 o'quvchi ta'lim oldi, – deydi maktab direktori Mukarrama Salimova. – O'qituvchilarimiz shogirdlarining Vatanimizning munosib farzandlari bo'lib voyaga yetishlari uchun jon kuydirmoqdalar. Ko'plab o'quvchilarni fanlar bo'yicha olimpiadalarda qatnashib, tuman va shahar bosqichlarida g'oliblar safidan munosib o'rin oldilar. Bugun ana shunday a'lochi o'quvchi-

larimizdan Otabek Azimov, Mohira G'ayratova, Gulhayo Abdurahobovalarning nomlarini faxr bilan tilga olamiz.

Darhaqiqat, har bir yosh uchun maktabning qadri beqiyos. Dunyoda hech bir maskan inson hayotida maktabchalik yorqin iz qoldira olmaydi.

Bugungi so'nggi qo'ng'iroq tadbiri ham 212 nafar bitiruvchining hayotida unutilmas voqea bo'ladi. Qadrdon maktablari bilan xayrlashib, litsey va kollejlari sari yo'l olayotgan o'g'il-qizlarni yanada sinovli kunlar kutmoqda.

Bugun har bir o'quvchining dil so'zlari, o'qiyotgan she'rleri, qo'shiqlari o'zgacha.

– «Assalom, yangi hayot!» deya oldinga intilamiz, – deydi 9-«D» sinf o'quvchisi Durdona Karimova. – Qadrdon go'shadagi so'nggi qo'ng'iroq katta hayotga da'vat jarangi bo'lib yangraydi.

*Bolaligim o'tgan sho'x dargoh,
Bugun seni tark etmoqdaman.
Parvozga shay qushcha misoli,
O'zga oshyon izlanmoqdaman.
Maktabjonim, azizim onam,
Bolalikdan bo'ldim parvonang.
Bilim olib endi ulg'aygach,
Tark etaymi nurli ostonang?*

Bu jo'shqin she'riy satrlarni tinglar ekanmiz, bizning ham qalbimizni o'zgacha bir tug'yon qamrab olganini bilmay qolamiz.

...Musiqi sadolari yangraydi. Maydonga eng a'lochi bitiruvchilardan biri 9-«D» sinf o'quvchisi Ulug'bek Fozilov



chiqadi. Uning yelkasida jajji qizaloq qo'ng'iroq chalyapti.

– Bugun ezgulik maskani bo'lmish maktabimiz bilan xayrlashmoqdami, – deydi Ulug'bek dilda hayajon, ko'zlarda quvonch bilan. Barcha sinfdoshlarimiz tilida, dilida yangrayotgan ushbu satrlar hamma uchun qadrlil:

*Ey chalguvchi qo'ng'irogni,
Chalaqolgin jo'shqinroq.
Qayda bo'lsak, esda bo'lsin,
Har on so'nggi qo'ng'iroq!*

So'nggi qo'ng'iroq jarangi tindi. Ustoz va shogirdlarning shirin suhbatlari, tilaklar, istaklar, bir-biridan go'zal guldastalar. Vatanimizning ming-minglab o'g'il-qizlari qatori biz ham qadrdon ilm maskanidan bir olam quvonch bilan qaytdik.

Jabbor RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan jurnalist

SAYOHAT ABOQLARI

qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday tadbirlarda faol ishtirok etayotgan, xulq-odobda tengdoshlariga namuna bo'layotgan bilimdon o'quvchilar har oyda rag'batlantirilib boriladi. Ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida fan to'garaklari tashkil etilgan. Shu bilan birga, o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash maqsadida turli teatrlar, muzeylar hamda Surxondaryo viloyatida barpo etilgan madaniy maskanlarga sayohat darslari tashkil qilinmoqda.

Yurtimning buyukligi menga kuch bag'ishlaydi. Istardimki, zukko, bilimdon yoshlarimiz Vatanimiz dovrug'ini dunyoga taratsinlar!

Dilbar SUVONOVA,
Termiz shahridagi 12-«Mehribonlik
uyi» negizidagi umumta'lim
maktabi direktor o'rinbosari



Biz «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini o'qib boramiz, shuningdek, gazetaning internetdagi saytidan ham muntazam foydalanamiz. Sinfdan tashqari o'qishda eraklardan, «Ajdodlarimizni o'rganamiz» sahifalaridan foydalanamiz. «Bilimdonlar so'zi bordir bu bobda» sahifasi bizga juda yoqadi. Kutubxonadagi badiiy adabiyotlar qatoridan «Tong yulduzi» kutubxonasi-da beriladigan erak kitobchalar ham o'rin olgan. Men ham kelajakda jajji o'quvchilar uchun xuddi shunday kitoblar yozmoqchiman.

Durdona ABDURAHMONOVA,
3-«A» sinf o'quvchisi

Juma kunlari bo'ladigan ma'naviyat darslarimizda «Tong yulduzi» gazetasining har bir sahifasini o'qib-o'rganamiz. Men ham gazetada chiqqan yosh ixtirochi o'quvchilarga havas qilib, «Aviasozlik» to'garagiga a'zo bo'ldim. U yerda turli raketalar maketlarini yasamoqdaman. Kelajakda, albatta, uchuvchi bo'laman.

I.YAHYOYEV,
5-«A» sinf o'quvchisi



O'quvchilar bunday hayajonli lahzalarni yil davomida kutib yashaydilar. To'g'rimi, aziz bolajonlar? So'nggi qo'ng'iroq ovozi eshitish hamisha maroqli, hamisha quvonchli.

So'nggi qo'ng'iroq tufayli qaysidir o'quvchi bir sinfdan ikkinchisiga o'tadi, qaysidir o'quvchi o'zini bitiruvchilar safida ko'radi.

Bu quvonch va armon sadolarini qay bir o'quvchi jiddiy yutuqlar bilan, yana bir toifa o'quvchi esa «a'lo» baholari bilan, kimdir amalga oshmagan rejalari bilan kutib oladi.

So'nggi qo'ng'iroqning jarangdor ovozi o'quvchilarga quvonch bag'ishlashi tabiiy. Ayniqsa, maktabning bitiruvchi sinflari uchun orzularning ushalish fasli boshlanadi. Ulardan ayrimlari o'qishlarini davom ettirish uchun litseylarga hujjat topshirsa, ayrimlari biror-bir hunar egallash maqsadida kasb-hunar kollejlariga o'qishga kiradilar. Hunar egallash inson umrining ziynati. Hunar tufayli inson hayotda o'z yo'lini, o'z o'rnini topadi. Hunar bois o'z imkoniyatlarini sinab ko'radi, o'z iqtidorini namoyon etadi. Hunar insonga baxt keltiradi.

ORZULAR QO'NG'IROQI

Badia

Aziz o'quvchi! Siz uchun zamonaviy maktablardan tortib, litsey va kollejlari qurilayotgani katta ijtimoiy hodisadir. Yurtboshimiz tashabbusi bilan ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ibratli ishlarning sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi.

Mamlakatimizning qay qo'shasiga bormang, ulkan qurilishlarga duch kelasiz. Obodlikni ko'rib, ko'nglingiz yayraydi. Ayniqsa, hashamat bilan qad rostlab turgan ta'lim muassasalari ruhingizni yanada yuksaltiradi. Chunki bu zamonaviy binolarda yurtimiz kelajagi bo'lgan siz aziz farzandlarimiz ta'lim olayotirsizlar. Siz litsey yoki kollejga, albatta, maktabdan uchirma bo'lasiz. So'nggi qo'ng'iroq sadolari ostida bilim cho'qqilari sari qanot qoqasiz.

So'nggi qo'ng'iroq — taqdir qo'ng'iroqi!

Uning sadolari ostida fidoyi ustozlar mehnatining samaralari yotibdi. Uning shirin sadolari yosh yuraklarga ajib aksado beradi, zavq bag'ishlaydi. Sizni ulug' ishlarga, yangi yutuqlarga da'vat etadi. G'ayratingizga g'ayrat qo'shadi.

Qadri bolajon! Shuni yaxshi bilginki, hayotda hech bir narsa yomg'ir kabi osmondan yog'maydi. Aksincha, yutuqlar, zafarlar hammasi bilim tufayli amalga oshadi. Ilm insonni ulug' qiladi. Yuksak maqsadlarni amalga oshirishda zamin vazifasini bajaradi.

So'nggi qo'ng'iroq — omad qo'ng'iroqi!

So'nggi qo'ng'iroq — sog'inch qo'ng'iroqi!

Siz uni sog'inasiz, kutasiz. Yosh yuraklaringiz orziqib ketadi. Uning o'tli sadolari sog'inchingizga sog'inch qo'shadi. Murg'ak qalblarda maktab mehrini yolqinlantiradi. Maktab mehri esa bir umr yuraklardan o'chmaydi. Bu samimiy mehrni hech bir narsa bilan almashtirib yoki o'chab bo'lmaydi.

Maktab mehri — qalbingizda hamisha bilim yog'dularini nurlantirib turadi.

Maktab mehri — ustozlarning bebaho saboqlarini namoyon etadi.

Maktab mehri — sinfdoshlarning samimiy va beg'ubor munosabatlarini yoddan chiqarmaydi.

Maktab mehri — yosh yuraklarda o'chmas izlar qidirgan o'tli nigohlarni ham esga solib turadi.

Maktab mehri — barcha insoniy mehlarning doyisi.

Maktab mehri — so'nggi qo'ng'iroq sadolari bilan chambarchas bog'lanib ketgani bois ham hamisha qalbimizda yashaydi.

Aziz o'quvchilar! Hozir yozgi ta'tilga tayyorgarlik ko'ryapsiz. Shunday bo'lsa-da, so'nggi qo'ng'iroq vujudingizda aksado berib, sizni yana maktabga chorlab qoladi. Siz esa yangi o'quv yilini mustaqilligimizning 20 yillik tantanalari nishonlanadigan qutlug' kunda boshlaysiz.

Eng ulug',
eng aziz
bayramimizda
uchrashguncha
sog', omon
bo'ling, aziz
o'quvchilar!



Ashurali JO'RAYEV,

«Gulxan» jurnali Bosh muharriri

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga

BU KUN BIZDA TANTANA



Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 170-maktabning 4-«B» sinf o'quvchisi Muxsina Ahmedova rasm chizishni juda yaxshi ko'radi. U «Bu kun bizda tantana» nomli rasmlarini bizga yo'llabdi.

BITIRUVCHILAR SO'Z SO'RAYDI

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 327-maktab rahbarining ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari Ma'mura Mansurovaning so'zlariga ko'ra, bu yil mazkur o'quv dargohidan 110 nafar o'g'il-qiz yangi hayotga qadam tashlaydi.

O'quvchilarning o'z imkoniyatlari va iqtidorlariga ko'ra 20 nafari akademik litsey va 90 nafari kasb-hunar kollejlariga hujjat topshiradilar.

— Men kelajakda shifokor bo'lmoqchiman, — deydi 9-«A» sinf o'quvchisi Shohsanam Nazirova. — Odamlar salomatligi yo'lida mehnat qilib, ularga manfaat keltirish juda maroqli.

— Biz, — deydi Abdulazim Shomahmudov, — uch sinfdosh do'stlarim bilan Axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi akademik litseyga o'qishga kirmoqchimiz. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, XXI asr axborot texnologiyalar asri. Shu sababdan ham bu sohada yetuk mutaxassislar yurtimiz kelajagi va ravnagi uchun juda zarur deb bilaman.

— Kelajakda jurnalist bo'lmoqchiman. Chet tilini ham mukammal egallashga ahd qilganman, — deydi hayajon bilan Donyor Bahodirov.

Qo'ying-chi, barcha bitiruvchilarning orzu istaklari chegara bilmaydi. Ularga omad yor bo'lishini tilab qolamiz.

Malikabonu ABDULLAYEVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi xorijiy tillar akademik litseyi 3-bosqich o'quvchisi



Maktab! Shu muqaddas dargohdan boshlanadi asl maqsadlar. Hayot haqidagi tushunchani ham aynan shu maktab beradi, shu yerda tug'iladi, buloq suviday tiniq ilk muhabbat ham. O'quvchisini o'z farzandidek ardoqlaydigan, uning kamoloti uchun bor mehri, mahoratini ayamaydigan fidoyi insonlar mehnat qiladilar bunda. Chunonchi, poytaxtimizning Olmazor tumanida 54 yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan 249-maktab ham ana shunday tabarruk maskanlar sirasiga kiradi.

Robiya HAYITOVA,
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi
249-umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi:

— Men ana shu maktabda tahsil olayotgan baxtiyor o'g'il-qizlardan biriman. Bizga Muqaddam Yusupova, Muxtasar Sagatova, Zuhra Yusupova, Sardora Muksimova, Sanobar Hasanova, Mahmuda Badalova, Nargiza Polvonova, Dilorom Yusupova singari o'z kasbining fidoyisi bo'lgan mehrdaryo ustozlar saboq berishadi. Zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Kitoblarga boy kutubxonamiz bor. Axborot resurs markazi ixtiyorimizda. Kasb-hunarga yo'naltirilgan tikish, to'qish, duradgorlik to'garaklari doimo o'quvchilar bilan gavjum. Turli fan olimpiadalari, ko'rik-tanlovlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Ayniqsa, «Alpomish va Barchinoy» sport musobaqalari, «Nihol» bolalar va o'smirlar olimpiadasi ommaviy tarzda juda qiziqarli o'tadi. Iqtidorli, intiluvchan maktabdoshlarimiz bunday musobaqalar, ko'rik-tanlovlarda yaxshi natijalarga erishib, maktabimiz sharafiga munosib himoya qilib kelishyapti. Jumladan, 2009-yili o'tkazilgan ona tili



va adabiyot fani olimpiadasida va yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan UNICEF tashkiloti tomonidan tashkillashtirilgan «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» nomli eng yaxshi insholar tanlovida men ham ishtirok etib, faxrli birinchi o'rinni egalladim. 2- va 3-o'rinlarni esa dugonalarim — 9-«G» sinf

o'quvchisi Madina Jamoliddinova, 9-«A» sinf o'quvchisi Dilorom Mahkamovalar bo'lishib olishdi.

Bir so'z bilan aytganda, bilim cho'qqilarini zabt etishimiz uchun maktabimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Bunday g'amxo'rliklarga javoban bilim maskanimizni uka va singillarimiz uchun ham avaylab-asrashga, toza va ozoda saqlashga harakat qilaymiz. Tumandagi maktablar orasida eng ozoda va tartibli, deya e'tirof etilganda, quvonganimizni bir ko'rsangiz edi. Bunday xayrli ishlarga bosh-qosh bo'layotgan maktabimiz direktori Gavhar opa Zuxurova ustozlarimiz orasida davlat ta'lim dasturi asosida tushuntirish ishlarini olib bormoqdalar. Shuningdek, tajribali o'qituvchilarimiz bilan hamfikrlikda tarbiya jaronini tashkil etish, ta'limning mazmuni va sifatini yaxshilash, imtihonlarga puxta hozirlik ko'rish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratyaptilar.

Men ham ana shunday mehrdaryo, fidoyi ustozlarning minglab shogirdlari qatorida ekanligimdan faxrlanaman.

Bugun hayajonli kun, qadrdon maktabimiz bilan xayrlashyapmiz. Ko'zlarimizda halqalanayotgan yoshni artib, ustozlarimiz bizni yupatishadi:

**SIZNI KUTAR NURLI
KELAJAK !**

Mohinur RAHMONOVA,
Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi
16-litsiyaning 9-«A» sinf bitiruvchisi:

**XAYR ENDI,
SINFDOSSH!**

— Qadrdon sinfdoshim, mana shu maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'ygan kunimiz yodingdami? Mening kechagidek yodimda: onam qo'lidan mahkam tutgan jajji qo'lhalarim qo'rquvdanmi, hayajondanmi, bilinar-bilinmas titrab turardi. Onam: «Ana, qaragin, mana bu qizchalar, bolakaylar senga o'rtoq bo'lishadi, ular bilan birga o'qiysan», deya sinfga kiritib yuborganlarida, yo'q, meni tashlab ketmang, deya yig'lab, ortlaridan yugurganim hamon yodimda...

Biz hali bir-birimizni tanimasdik-da. O'shanda biringiz opamdek, biringiz singlim, boshqalaringiz aka-ukamdek bo'lib ketishingizni bilganimda, yig'larmidim?..

Menimcha, insonning eng shirin xotiralari maktab davri bilan bog'liq, baxtiyorligi esa sinfdoshlari bilan o'tgan damlari bo'ladi. Shuning uchun ham qadrdon maktabi, sinfdoshlari bilan xayrlashish oson bo'lmaydi.

«So'nggi qo'ng'iroq»ning ham

quvonchli, ham biroz qayg'uli tadbir deyilishi ham shundan.

Hademay maktab qo'ng'irog'ining quvnoq sadolari biz uchun so'nggi bor yangrashini o'ylasam, maktabga ilk bor qadam qo'ygan kunimdagi holatga tushayman: qo'l-oyoqlarim bo'shashib, tomog'imga allanima tiqilgandek bo'lyapti...

Sinfdoshlarim, men Sizni hech qachon unutmayman, ismlaringizni yuragimning to'rida saqlayman.

Feruza JALILOVA yozib oldi





SARISHTA QIZ – FARISHTA QIZ



Mening pazanda, chaqqon, zukko va tabrikkor qizlarim! E'tiboringizga Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 78-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Aziza Abduvaliyevaning yo'llagan maktubini havola qilmoqchiman.

Aziza tahsil olayotgan 78-maktabda musobaqa bo'lib o'tibdi. 3-sinflararo o'tkazilgan «Sarishta qiz» deb nomlangan tanlovda 7 nafar qiz 8 ta shart bo'yicha o'zaro bellashdilar. Shartlarning bari qiziqarli, oilada qiz bolalar uchun zarur bo'ladigan yumushlardan iborat bo'lib, hay'at a'zolari tomonidan baholandi.

1-o'rin Nodira Umrzoqovaga, 2-o'rin esa Ozoda Ernazarova va Madinabonu Ibrohimovalarga nasib etdi. 3-o'ringa Zilolaxon Mirzayeva loyiq topilib, maktab ma'muriyati tomonidan maxsus sovg'alar bilan taqdirlanishdi. Umid qilamizki, qolgan qizlarimiz ham g'olib bo'lmasalar-da, sarishtalik sabog'ini oldilar.

Dunyoda eng go'zal ayol go'dagini bag'riga bosib turgan ayoldir. Eng baxtli va boy ayollar farzandlari kamolini ko'rgan mehrirdaryo onalarimizdir. Ona mehrini quyoshning tafiidan ishqiq do' bo'lib aytishmaydi.

Darhaqiqat, onasiz xonadon zim-ziyo kulbaga o'xshaydi. Onasiz uyda qut-baraka bo'lmaydi. Onalar o'zining aqli, nafosat-u nazorati bilan dunyoni yomonliklardan, razolatdan asraydilar. Ular umrimizga mazmun bag'ishlaydilar. Ko'chadan horib-charchab kelsak yoki biror kishidan xafa bo'lib qolsak, bizni tinchlantirib, to'g'ri yo'lga soladigan, chiroyli nasihatlar qilib, ko'nglimizga malham bo'la oladigan ham onalarimizdir.

Ularning qiyosini topish mushkul. Ona Vatan kabi muqaddasdur. Bunday aziz va mukarram nomga loyiq bo'lish esa hamma ayollarga ham nasib qilavermaydi.

Onalarimiz farzandlari uchun o'z jonlarini berishga ham tayyor turadilar. Goho bolajonlardan eshitib qolamiz:

- Mening onam dunyodagi eng go'zal va aqlli ayol.
- Menga onajonimning barcha xislatlari yoqadi.
- Onam menga qiz bolaga xos bo'lgan

DUNYODAGI ENG



GO'ZAL AYOL

barcha fazilatlarini o'rgatadilar. U kishi tufayli men hayotda o'z o'rnimni topayapman.

– Mening onam deydi: «Bola, agar senga birov tosh otsa, sen unga gul-u rayhon otgin. Senga qo'pol muomala qilib, ko'nglingni ranjitgan odamga kulib boqib,

faqat yaxshiliklar qilgin, toki u o'z qilmishidan o'zi uyali qolsin...»

Ana shunday oqila, shirinsuxan, qalbi ummon onalarimizni bir umr kaftimizda ko'tarib yursak arziydi. Rivoyat qilishlaricha, qadimda bir kishi o'z onasini ko'tarib, Ka'bani tavof qildiribdi-da, Abdulloh ibn Umar oldiga kelib shunday debdi:

– Ey Abdulloh, men onamni Makkaga ko'tarib olib borib keldim. Onam oldidagi qarzimni oz bo'lsa-da, uzdimmi?

Shunda Abdulloh javob qilibdi:

– Ey farzand, bu xizmatning onaizoring beshiging boshida bedor o'tkazgan bir kechasi haqqini ham oqlay olmaydi...

Bundan ko'rinish turibdiki, biz onalarimizdan umrbod qarzdormiz. Bellaridan quvvat, ko'zlaridan nur ketganda, ko'zlariga nur, bellariga quvvat bo'laylik!

Keling, tengdoshlarim, duogo'y ota-onalarimizni asrab-avaylaylik! Shundagina biz, albatta, baxtli bo'lamiz.

Azizaxon O'TAYEVA,
Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 1-ixtisoslashgan Davlat umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchisi

MODAMI
yozg...

Bir kuni ish bilan shahar markaziga borishimga to'g'ri keldi. Yo'lovchilarning ko'pchiligi yoshlar, ularning aksariyati qizlar. Yo'lda ketayotib, g'alati bir voqeaning guvohi bo'ldim. Kiyimlari o'ta zamonaviy, qimmat qo'l telefonlarini ko'tarib olgan bir gala qizlar hech kimga gap bermay shovqin-suron solishardi. Ota-ona bolam tengdoshlaridan kam bo'lmasin, deb istagan narsasini imkon qadar olib berishga harakat qiladi. Lekin biz farzandlar bu e'tiborga yetarlicha javob bera olayapmizmi? Ba'zi yoshlar o'qishga faqat

kiyimlari-yu taqinchoqlarini «ko'z-ko'z» qilgani borishadimi, deb o'ylayman. Onamning aytishlaricha, ilgari o'qituvchilar qulog'iga kichikkina sirg'a taqqan qizlarni ham tartibga chaqirib:

– Bundan keyin maktabga tilla taqib kelma, to'y-hashamlarga, mehmonga borsang taqasan, – deya tanbeh berishar ekan. Hozir esa ayrim qizlarimiz taqib olgan taqinchoqlarni, kiygan kiyimlarini baholasak, narxidan hayratga tushasan kishi.

Menimcha, bunday kiyimlarni kiyadigan o'z o'rnini, joyi bo'ladi. Bachkanalik bizga yarashmaydi, siz bunga nima deysiz, dugonalar?

Gulchehra YUSUPOVA,
Farg'ona shahri

OFTOBOYIM tayyorladi

ZAFARJONGA SHERIK BO'LASIZMI?

Yaqinda to'y boshlab qo'ygan bir do'stimiznikiga hasharga bordik. Mehmonlar kelishiga hovlini biroz ta'mirlamoqchi bo'lgan ekan. Qo'ldan kelgancha yordamlashdik. Kim hovlidagi daraxtlarni oqlagan, yana birov suvog'i ko'chgan devorni suvab, chiroyli qilyapti. Tabiatan jonsarak do'stim ishlar bir maromda ketayotganiga qaramay o'zini qo'yarga joy topolmasdi.

Tushlik mahalligacha ancha-muncha ishlarni bitirdik. Hovlining chiroyi ancha ochilib qoldi. Ammo negadir do'stimning chiroyi ochilay demasdi.

– To'y tashvishlari charchatib qo'ymadimi, o'rtoq? – daldal bergan bo'ldim unga.

Do'stim xijolat bo'lgandek jilmaydi.


– Odam shoshib qolarkan, ayvondagi derazalarning oynasi solinmagan. Usta ertalab kelaman degan edi, peshindan o'tsayam daragi yo'q. Shunga sal asabiylandim shekilli.

Aksiga olib, oramizda oyna solishni biladiganimiz yo'q ekan.

Shu payt do'stimning bu yil to'qqizinchi sinfni bitirayotgan o'g'li Quadratjon iymaniygina otasiga yaqinlashdi:

– Dada, men bir urinib ko'rsam maylimi?
– Eplay olarmikansan? – dedi dadasi ishonqirama-banday. To'yoldi ortiqcha xarajatga tushurmaysanmi ishqlib?

Otasidan rozilik olgan Quadratjon bir zumda deraza ko'zlarining o'lchovini olishga kirishdi. Keyin qo'lga olmos olib, oynani kesa boshladi. Quadratjon oynani



shirillatib bir tekis kesa boshlaganida, ochig'i, shunday o'g'li borligi uchun do'stimizga havasimiz keldi. Haligina choy tashib, xizmatimizni qilib yurgan bolakay ko'z o'ngimizda bir zumda katta ustaga aylandi. Men esa xuddi shogird boladay unga yordamlashib turdim. Ish orasida undan bu hunarni qayerdan o'rganganini ham bilib oldim. Ma'lum bo'lishicha, Quadratjon o'tgan yili yozgi ta'tilni tog'li qishloqdagi buva va buvisining bag'rida o'tkazgan ekan. O'shanda buvasining eski qadrdoni sandiqchi usta Umar buvaga shogird tushib, sandiq, javon yasashni o'rganibdi. O'qish boshlanganda esa bu kasbga qiziqib qolgani bois maktabidagi duradgorlik to'garigiga qatnab, bu hunarning nozik sirlarini o'rganibdi. Eng qizig'i, o'g'lining bu hunaridan do'stim ham bexabar ekan.

Do'stimnikidan kechga yaqin qaytdik. Boshqalarni bilmadim-u, men bir fikrga keldim: xalqimizning «Hunarli xor bo'lmas» degan maqoli naqadar to'g'riligiga yana bir bor amin bo'ldim. Uch-to'rt kundan keyin yettinchi sinfni bitirayotgan o'g'lim Zafarjon yozgi ta'tilga chiqadi. Men uni, albatta, biror ustaga shogirdlikka beraman. Qanday bo'lsa ham hunar o'rgansin. Yozgi ta'tilga oshiqayotgan do'stlarim, siz ham Zafarjonga sherik bo'lasizmi?

Yusuf ABDULLAYEV



Sportchi bolalarning nega yozgi ta'tilni intizorlik bilan kutishlarini bilasizmi? Unda men sizlarga bir sirni ochaman. Fil bo'yi maktabdagi darslar, sport mashg'ulotlari-yu musobaqalar, barchasi ularni biroz bo'lsa-da, toliqtiradi. Ammo sportni o'z hamrohiga aylantirgan tengdoshlaringiz so'nggi qo'ng'iroq sadolaridan yanada kuch oladilar. Chunki yoz fasti ham ular uchun musobaqalar mavsumi-da! Bu orada ularning ko'pchiligi chempion nomiga sazovor bo'ladilar.

MAYDONDA DUOLAR QO'LLASIN!



Dastlab maktab musobaqalarida chiniqqan taekvando to'garagi a'zosi Shahriyor tuman, viloyat bahslarida ham mutaxassislar nazariga tushdi. Ustozi Sunnat Mamadaliyev jajji shogirdining harakatlaridan quvonardi. Chunki o'z vaqtida mashg'ulotlarga qatnashayotgan bolakayning qat'iy intizomi g'alaba sirlaridan biridir. – Shahriyor, ertaga Toshkentga jo'namiz, – dedi murabbiy shogirdining yelkasiga mehr bilan qo'lini tashlab. – Raqiblaring kuchli. Bir emas, yetti raqib bilan bellashishga kuch topa olishingga ishonaman...

Shahriyor ota-onasiga poytaxtga, katta musobaqaga ketayotganini aytganida, ular duoga qo'l ochdilar. Har bir bellashuv uchun ajratilgan 1,5 daqiqadan, jami 10,5 daqiqa vaqtning atigi 10 daqiqasi Shahriyorning raqiblari ustidan g'alaba qozonishi uchun yetarli bo'ldi. Hakamlar uni bir ovozdan oltin medalga loyiq topib, Osiyo chempioni deb e'lon qildilar...

Men ham yurtimizning duoga qo'l ochgan otaxonlaridan biriman. Bolalarim, barchangizni duolar qo'llab yursin!

Sa'dulla QOZOQOV,
Jizzax viloyati,
Zarbador tumani

QAHRAMONNING LARI

Angren shahrida yetakchi bir klub bor. Uni taekvandochi Qahramon aka Sattorov boshqarib keladi. Klub a'zolari shahar, viloyat, respublika miqyosidagi tadbirlarda, shuningdek, «Mustaqillik», «Navro'z» umumxalq bayramlarida faol qatnashishadi. Ayni damda 100 nafar ishtirokchi va 20 dan ziyod murabbiyga ega mazkur klub haqida sizlarga hikoya qilmoqchimiz:

O'n yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan mazkur klub a'zolari bugungi kunda o'z yutuqlari bilan bolalar sporti rivojiga munosib hissa qo'shib kelyaptilar. Aleksey Zabugen hamda Bogdan Kim, Nuriddin Qayumov, Shohruh O'rmonov, Sardor O'rinboyev, Farangiz Akilxonova, Otamurod Hunarovning xalqaro turnirlarda qo'lga kiritgan oltin medallari hali-hanuz klubni quyoshdek «yoritib turadi».

Hasan va Husan Boynazarov hamda Faxriy Marafiqov jahon chempionati g'oliblaridir. Poytaxtda kimboksing bo'yicha o'tkazilgan jahon

championatida ham klub sportchilari 2 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza medalini qo'lga kiritib, uning sharafiga munosib himoya qildilar.

Championlar bilan to'la bu maskan 2006-yili Angren shahrining 60 yillik yubileyida shahar hokimining «Faxriy yorlig'i» bilan taqdirlangan.

«O'zbek jang san'ati» federatsiyasi Angren shahar rahbari Qahramon Sattorovning yutuqlariga havas qilsa arziydi. Xizmatlari evaziga 1-darajali Diplom hamda mustaqilligimizning 18 yilligi ko'krak nishonini qo'lga kiritgan fidoyi murabbiyning maqsadi istiqbolimizning 20 yilligini ham munosib kutib olish.

Qahramonning qahramonlari safi kundan-kunga ortib borishga aslo shubha qilmaymiz.



Qaysi guruh ishtirokchilari raqiblaridan ko'p chiziqlarni o'chirishgan bo'lsa, bu o'yinda ular to'la g'alaba qozongan bo'ladi.

O'yinni qiziqishingizga qarab davom ettirishingiz mumkin.

Botirjon NORMURODOV,
sharqshunoslik institutining 2-bosqich talabasi

Muhammad YUSUF



*Yer yumaloq, to'p yumaloq,
Yashil sayhon, yashil o'tloq.
Zamindan keng maydon to'la,
Muxlislaring golga mushtok.*

*O'yna, botirlarim qani,
Gumburlatib darvozani.*

*Yuraklarda olov yol bor,
Demak, bizga g'alaba yor.
Maradonna nima bizga,
Azamat bor, Mirjalol bor.*

*O'yna, botirlarim qani,
To'pga to'ldir darvozani.*

*Ortda millat hamdam bizga,
Har bir yutuq malham bizga.
Har bir o'yin nomus jangi,
Har g'alaba bayram bizga.*

*To'p sur, botirlarim qani,
To'pga to'ldir darvozani!!!*

ZARKENT CHEMPIONLARI

*Bizning Zarkent konchilar
qo'rg'onimizda «Barkamol avlod
yili»da qurib, foydalanishga
topshirilgan sport majmuasi bor.*

*Ko'plab bolalarning
championlik shohsupasidan joy
olishlarida uning o'rni beqiyos.*

Majmuada voleybol, basketbol, stol tennis, gimnastika va karate sport to'garaklari faoliyat yuritadi. Karate to'garagi a'zolari Katta-qo'rg'on shahrida bo'lib o'tgan respublika chempionatida muvaffaqiyatli qatnashib, 6-«V» sinf o'quvchisi Muborak Jo'raqulova 30 kilogramm vazn toifasida 1-o'rinni, 9-«A» sinf o'quvchisi Bobur Lutfullayev 45 kilogramm vaznlilar orasida 3-o'rinni egalladi. Katta-qo'rg'onidagi mazkur musobaqa bizning kichik chempionimiz – 4-sinf o'quvchisi Shahzod Boytemirovni ham shohsupaga chorladi.

**G'alaba muborak,
zarkentliklar!**

Muhabbat MA'MUROVA,
Samarqand viloyati,
Qo'shrahbot tumanidagi
26-umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi

CHIZIQ CHIZING, O'CHIRING...

Mana endi biroz bo'lsa-da, bo'sh vaqt topishga imkoningiz bor. Axir yozgi ta'til boshlanmoqda-ku!

Men sizlarga milliy o'yinlarimizdan birini o'rgatmoqchiman.

O'yinimizga 8-10 nafar bolalarni taklif etamiz. Ularni teng ikki guruhga bo'lib, devorlarga qalam bilan chiziqlar chizib ketish vazifasi topshiriladi. Chiziqlar ikki rangdagi qalam bilan chiziladi. Chiziqlar chizish uchun belgilangan vaqt tugagach, ikkala guruh a'zolari chiziqlarni o'chirib chiqishga kirishadilar. So'ngra, bir xolis bola o'chirilmay qolgan chiziqlarni sanab chiqadi.



«Darlar tugadi, endi uch oy mazza qilib dam olaman», dersi?! Sal shoshilmang. Uch oy ham bir zumda o'tib, sentabrdan yana o'qishlar boshlanadi. Bo'sh vaqtlarda biz bilan birga «o'zingni sinab ko'rangiz» o'shanda qiyinlik qolmaydiz. Shu bois, mazkur ruknimizni davom ettirib, sizlar bilan yuzlashib turish niyatidamiz. Rang-barang, qiziqarli savollarimiz kelajakda sizga foyda berishini ham yodda tuting.

O'ZINGNI SINAB KO'R

1. O'zbek tilidan fors-tojik tiliga o'tgan so'zlarni aniqlab, bizga yozib yuboring:

tagin – shahzoda, jasur
charuh – charoq
tup – to'p (qurol)
to'fang – miltiq
qo'shun – qo'shin (harbiy)
alak – elak
qashuq – qoshiq
dulma – do'lma
qaymaq – qaymoq
xatun – malika
bazak – bezak
arg'amchi – arqon.

2. «Riyoziyot» nima?

- a) matematika;
b) algebra;
d) geometriya.

3. «O'rda» nima degani?

- a) tepalik, baland;
b) balandlikka qurilgan saroy;
d) qal'a.

4. Ibora tuzishni bilasizmi?

Quyidagi gaplardagi iboralarni toping.

1. Omonboyning tepa sochi tikka bo'ldi.
2. Teshavoy oyog'i kuygan tovuqday tipirchilab qoldi.

5. 1-4-sinf o'quvchilari bizbop test savollar tuzing, deya iltimos qilishgan. Quyidagi testlar ular uchun.

1. Do'st achitib gapirar, dushman...
2. Yaxshi so'z – qaymoq
Yomon so'z – (maqol).

Boshi 2-betda

Mirzo Ulug'bek o'sha zahoti devonbegini chaqirib, mamlakat bo'yicha xiroj to'lagan kishilarning ro'yxatini keltirishni so'radi. Oradan vaqt o'tib, yangi yil kirishi bilan o'tgan yili soliq to'laganlarning umumiy ro'yxatini ko'rib chiqib, qorako'llik kishining ellik tanga o'rniga besh yuz tanga to'laganiga guvoh bo'ldi.

Mirzo Ulug'bek uni Samarqandga chaqirdi va xilvat xonada u bilan suhbatlashdi.

U dedi:

– Shohim, men oddiy to'quvchiman. Bir kuni do'konim oldidagi daraxtga hakka kelib qo'ndi va og'zidan xaltacha tushdi. Unda la'l bor ekan. La'lni Buxoro bozorida bir javohirshunosga bir yarim ming tangaga pulladim va bozordan o'zimga ot, xotinimga sirg'a, gilam, bolalarimga kiyim-

kechak, ro'zg'orga kerakli narsalar oldim. Qarindoshlarimga Samarqandda bir badavlat qarindoshim bor edi, o'lib qoldi, merosi esa menga o'tdi, dedim.

Mirzo Ulug'bek javohirshunosni chaqirdi va la'lni undan talab qildi.

Qalay, bitiruvchi, qoyil qoldingmi? Sen ham shunday dono bo'li!



BAYRAM QAYERDA, QANDAY O'TKAZILADI?

Bahorning so'nggi oyi oxirlagani sari har bir inson xotirasida hayotidagi unutilmas damlar jonlanib, quloqlari ostida «So'nggi qo'ng'iroq» sadolari yangragandek bo'laveradi. Xo'sh, bu bayram boshqa mamlakatlarda qanday o'tkaziladi? Bu, albatta, barcha bitiruvchilarimiz uchun qiziqarli bo'lsa kerak. Toshkent Davlat pedagogika universiteti qoshidagi akademik litsey o'quvchisi Sadoqat ALIJONOVA asrimiz mo'jizasi bo'lmish internet manbalari asosida ushbu savolga quyidagicha javob topibdi:

Fransiyada bitiruv oqshomi nishonlanmaydi. Bitiruv imtihonlariga yuz kun qolganda, o'quvchilar bir kun maktabga bormasliklari va bayram uyushtirishlari mumkin. Shu kuni ular karnaval kiyimlarini kiyishadi, bir-birlariga suv sepib, un va tuxum otishadi.

Avstraliyada bitiruv oqshomi o'ninchi yoki o'n ikkinchi sinf yakunlanganda o'tkaziladi. Bayramga o'quvchilar antiqa transportlarda, masalan, ishlab chiqarilganiga ancha yillar bo'lgan avtomobilda yoki traktorda, o't chiqarish mashinasida yoki oddiy aravada kelishlari mumkin.

Amerikada bitiruv tantanalari mayda – oxirgi imtihondan keyin boshlanadi.

Bitiruvchilar bayram tantanalarini o'tkazuvchi maxsus qo'mita a'zolarini saylaydilar. Ota-onalar va bitiruvchilar maxsus kiyimlar tanlashadi. Kechaga ko'pincha juft-juft bo'lib kelishadi. Buning uchun ular sinfdosh bo'lislari shart emas. Juftliklar bir-birlariga kiyimlariga qadash uchun gul taqdim etishadi, restoranda raqsga tushishadi. Tantana so'ngida maktab direktori bazm qiroli va qirolichasining ismini e'lon qiladi.

O'zbekistonimizda esa bitiruv oqshomini nafaqat bitiruvchilar, balki barcha insonlar intiq kutishadi. Negaki, bu kuni qadrdon sinfdoshlar uchrashishadi, yana bir sinfdosh o'tirib, ustozlari bilan diyorlashishadi, dildan suhbat qurishadi.



Mehr-oqibatga asoslangan o'zimizning «SO'NGGI QO'NG'IROQ»dan qo'ymasin, nima dedingiz, sinfdosh?!

Sadoqat ALIJONOVA,
Toshkent Davlat pedagogika universiteti
qoshidagi akademik litsey talabasi

JONIMNING SUVRATLARI

(Adabiy qaydlar)

Ijodkor olimga ham, g'avvosga ham, zargarga ham o'xshaydi. U shu ma'noda olimki, yuragini taniganidan boshlab umr bo'yi o'z qalbini tadqiq etadi, o'rganadi. Shu ma'noda g'avvoski, qalbining tub-tublarida yashirib yotgan fikr va tuyg'u «dur»larini qog'oz yuziga olib chiqadi va olib chiqqan onidan boshlab so'z tarashlovchi usta – so'z zargariga aylanadi.

Shoir va she'riyatni olam ichra olam deb ham atash mumkin.

Abdurahmon AKBAR

Farzandlarimizga to'g'ri tarbiya berib, Vatanimizga sodiq, har tomonlama yetuk inson qilib, kamol toptirish vazifasi zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi. Shunday ekan, hamisha ulardan nasihatimizni, hayot uchun kerakli saboqlarimizni ayamashimiz kerak. Hech kim o'z farzandining nogiron bo'lib qolishini istamaydi, albatta. Yong'in esa insonlarni hayotidan, molumkidan, yaqinlaridan ajratadigan yoki bir umrga nogiron qilib qo'yadigan bir ofatdir. Bu esa beparvoligimiz, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etmasligimiz oqibatida ro'y berishi mumkin. O'quvchilarimizning yozgi ta'til kunlarida uyda yolg'iz nazoratsiz qoldirmaslikka, barchani doimo hushyorlikka, ogohlikka chaqiramiz.

DOIM HUSHYOR BO'LAYLIK!



SH.SALIMOV,

Shayxontohur tumani

IIB YOXB kichik inspektori



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga

qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV

Navbatchilar:
Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALLOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel/faks:

(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092

Adadi - 67069

Buyurtma N: J 1833